

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston davlat jismoniy  
tarbiya va sport universiteti  
rektori prof. M.R. Boltabayev**



**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari o‘rtasida  
“Selfilar tanlovi”**

## **NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari o‘rtasida **“Selfilar tanlovi”** (keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘yicha saylovoldi harakatlar doirasida tashkil etiladi.

1.2. **“Selfilar tanlovi”** 2021-yil – oktyabr oyida o‘tkaziladi.

1.3. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan o‘tkaziladi.

### **II. Tanlovdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar**

2. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – jamiyatda O‘zbekiston Respublikasi yoshlarning ishtirokini kengaytirish hamda yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirish, yoshlarni saylov institutlariga ishonchini mustahkamlash hamda, talaba yoshlarning jamiyatimizdagi barcha siyosiy jarayonlarda faol yetakchiligini ta’minlash;

2.2. Qonun ustuvorligi, O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan saylovda yoshlar ishtirokini faol ta’minlash, bugungi islohotlarga daxldorlik hissini oshirish;

2.3. Saylov qonunchiligi, saylov jarayonlaridagi o‘zgarishlar, odil saylov tizimi va mexanizmini amalga oshirishdan iborat.

### **III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish**

3. Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi rektori buyrug‘i bilan Tashkiliy qo‘mita va soha professor-o‘qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar xay’ati tuziladi.

3.1. Talabalar tomonidan yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar kesimida tuzilgan hakamlar hay’ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

3.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hakamlar xay'ati tuziladi va tanlov g'oliblari Tashkiliy qo'mitaning yig'ilish bayoni orqali tasdiqlanadi. Xay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb etiladi.

3.3. Mazkur tanlov e'lon qilingan kundan boshlab va tanlovning yakuni bo'yicha rasmlar qabul qilish sanasi universitet rasmiy kanalida e'lon qilinadi.

#### **V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

4. Selfilar tanlovidagi rasmlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi: rasmni baholashda uning kreativligi, hozirgi zamonga mosligiga qarab baholanadi.

mazkur rasmlar uchun 10 ballgacha baho beriladi.

5. Bu shart orqali talabanning saylovga qanday tayyorgarlik ko'rganligini tekshirish maqsadida tashkil etiladi.

#### **IV. G'oliblarni taqdirlash**

6. Tanlov yakunida hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra g'olib bo'lgan talabalar universitet rektori tomonidan Diplom va 1-o'rin uchun telefon; 2-o'rin uchun sport inventari hamda 3-o'rin uchun badiiy kitoblar bilan taqdirlanadi.